# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

Qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo‘llari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent

Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi

“Yashil iqtisodiyot”da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar o‘g‘li,** katta o‘qituvchi

Yoqilg‘i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi

Tog‘li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil o‘g‘li,** tayanch doktorant

Ta’lim turizmining nazariy asoslari va O‘zbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira O‘ktamovna,** tayanch doktorant

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li,** tayanch doktorant

Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.

Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD

Turizmni rivojlantirishda “Tourism 4.0” konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulug‘bekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid o‘g‘li,** magistrant

Перспективные направления “Зелёной химии” для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**

O‘zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr

Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant

Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD

Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant

Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.

Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o‘g‘li,** mustaqil tadqiqotchi

O‘zbekistonda to‘lov tizimining raqamli transformatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normo‘minovna,** o‘qituvchi

Tijorat banki xizmatlarida ta’lim kreditining o‘rni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ........ 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ........ 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ........ 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ........ 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ........ 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ........ 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ........ 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ........ 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ........ 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ........ 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ........ 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ........ 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ........ 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ........ 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ........ 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ........ 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ........ 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ........ 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**



# RESPUBLIKADA KICHIK BIZNESNI MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI QO'LLAB-QUVVATLASH MASALALARI

**Ergashev Otamurod Toshtemirovich**
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, boshqarma boshlig'i o'rinbosari, PhD.

Annotatsiya: Bugungi kunda iqtisodiyotning lokal tarmoqlaridan sanalgan kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash va shu orqali milliy iqtisodiyotdagi qator muammolarni yechimiga barham berish ancha dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Shuningdek, ularning faoliyatiga to'siq bo'luvchi moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi va boshqa sabablar oldini olish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqdir. Maqola ana shu dolzarb masalalar nazariy va amaliy tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: kichik biznres, tadbirkorlik faoliyati, ishbilarmonlik, kredit, foiz stavkasi, moliya-kredit mexanizmi, pul munosabatlari, moliyaviy resurs.

Abstract: Today, the support of small business entities counted from local sectors of the economy and, through it, the elimination of a number of problems in the national economy is becoming one of the much more pressing issues. It is also advisable to develop conclusions and proposals to avoid the lack of financial resources, high credit interest rates and other reasons that are an obstacle to their activities. The article is devoted to the theoretical and practical analysis of these current issues.

Key words: small Business, Business Activity, business, credit, interest rate, financial and credit mechanism, monetary relations, financial resource.

Аннотация: Сегодня поддержка субъектов малого предпринимательства из местных отраслей экономики и решение тем самым ряда проблем в национальной экономике становится одним из наиболее актуальных вопросов. Также целесообразно сделать выводы и предложения по предотвращению нехватки финансовых ресурсов, высоких процентных ставок по кредитам и других причин, препятствующих их деятельности. Статья посвящена теоретическому и практическому анализу этих актуальных вопросов.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательская деятельность, предпринимательство, кредит, процентная ставка, финансово-кредитный механизм, денежные отношения, финансовый ресурс.

## KIRISH

Jahonda kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab- quvvatlash va ular faoliyatini samarali rivojlantirish bo'yicha turli moliya-kredit vositalardan foydalanish xalqaro moliya muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu vositalar asosida davlat kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha qulay muhit sharoitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1]. Biroq, hozirgi global pandemiya davrida mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning keskin pasayishi, pul oqimlari harakatining susayishi, naqd pulga bo'lgan ehtiyojning tug'ilishini oldini olish uchun Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlarida kichik biznes subyektlarini qo'llab quvvatlash uchun uch yo'nalishdagi kreditlar ajratildi [2]. Shuningdek, Covid–19 pandemiyaga qarshi AQSh hukumati 5 ta qonun ishlab chiqdi, uchinchi qonun aynan 2020–2030 moliya yilida qo'llab-quvvatlash dasturi bo'yicha kichik biznesni qo'shimcha kreditlash va ularga imkoniyatlar yaratishga davlat byudjetidan 377 mlrd. dollarlik mablag' ajratildi. Bu o'z navbatida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot uchun yanada ahamiyatli ekanligidan va uni rivojlantirishda moliya-kredit mexanizmi vositalaridan samarali foydalanish zarurligidan dalolat beradi [3].

O'zbekistonda so'nggi yillarda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinlik berish orqali kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, jumladan ularning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish,

bojxona boji va soliq to‘lovlari bo‘yicha imtiyozli tizim joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, kichik biznes korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev raisligida 2023-yil 25-yanvar kuni kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda 2022-yilda kambag‘allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgani, 1 million aholi kasb-hunarga o‘qitilib, ish boshlashiga ko‘maklashilib, kambag‘allikdan olib chiqilgani ta’kidlandi. Shu davrda 200 mingga yaqin tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi, 10 mingta korxonaning faoliyati kengaytirildi, 11 mingta korxona quvvati tiklandi [4]. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda iqtisodiyotimizning yetakchi lokomativi deb e’tirof etilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganining o‘zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlardan dalolat beradi.

## MATERIAL VA METOD

Iqtisodiy adabiyotlarda “moliya-kredit mexanizmi” tushunchasi juda keng qo‘llaniladi. Ammo, iqtisodiy mohiyati, mazmuni va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risida umumiy fikr mavjud emas. Tahlillar ko‘rsatishicha, ko‘plab iqtisodchilar “moliya-kredit mexanizmi” va “moliya mexanizmi” tushunchalarini aynan bir xil deb hisoblaydilar. Olimlar va amaliyotchilarning ushbu atamaga turli xil ta’riflari va yondashuvlari orasida ikkitasi eng ko‘p e’tiborga loyiqdir.

Birinchi yondashuv shundan iboratki, unga ko‘ra moliya mexanizmi deganda korxonalar moliyasining faoliyati tushuniladi. Ushbu yondashuv korxonalar moliyasining ichki tuzilmasini aks ettiradi. Ammo, mazkur tushunchani moliya mexanizmi bilan bir xilda qarash maqsadga muvofiq emas. Ikkinchi yondashuv shundan iboratki, moliya mexanizmi deganda korxonaning holati va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan usul va dastaklar, shakl va vositalar to‘plami tushuniladi.

Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlardan O. R. Romanenkoning fikricha, “moliyaviy mexanizm – bu iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy rag‘batlantiruvchi omillar, vositalar, dastaklar, iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarni tartibga solishning shakl va usullari majmuasidan iboratdir”. Bundan kelib chiqqan holda tijorat korxonalarining moliyaviy mexanizmi, notijorat korxona va muassasalarning moliyaviy mexanizmi, sug‘urta mexanizmi hamda davlat moliyaviy mexanizmlarini ajratib ko‘rsatish mumkin [5]. Moliya mexanizmi ichki tuzilmasining tarkibiy elementlari bo‘lib, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy dastak va vositalar, moliyaviy ko‘rsatkichlar, normativ me’yoriy hujjatlar va imtiyozlar, moliyaviy nazorat, moliya huquqi kabilar hisoblanadi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan A. I. Balabanov va I. T. Balabanovlarning fikrlariga ko‘ra, moliyaviy mexanizm korxonalar, tashkilotlarning moliyaviy resurslarini rag‘batlantirish maqsadida foydalanish va rejalashtirish jarayonida moliya dastaklari harakatini ifodalovchi tizimni tashkil etadi, deb ko‘rsatiladi [6]. Boshqa tomondan, “moliyaviy mexanizm davlat tuzilmalari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida moliyaviy resurs mablag‘larini yaratish va ulardan foydalanish jarayonidagi davlatning moliyaviy faoliyatini boshqarishning iqtisodiy-tashkiliy va huquqiy shakllari va usullari to‘plamidir” [7]. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta’rif mazmunidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mazkur iqtisodchi olimlar moliya-kredit mexanizmiga umumdavlat miqyosiga alohida to‘xtalib o‘tib, korxonalarda moliya-kredit mexanizmlarining mavjudligini butunlay inkor qiladi.

E. I. Shoxinning fikricha, “moliyaviy mexanizm – rejalashtirilgan strategik maqsadlarga erishish uchun moliyaviy boshqaruv subyektlari va obyektlariga ta’sir ko‘rsatishning shakl va usullari to‘plamidan iboratdir”. U moliyaning funksiyalarini to‘liq va samarali bajarilishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega [8].

V. K. Senchagov moliya-kredit mexanizmini “moliya va kredit boshqaruvini tashkil etishning shakllari, moliya-kredit dastak va usullarining o‘zaro bog‘liq tizimi” sifatida ta’riflaydi [9]. A. Berger va G. Udelllarning fikricha, moliya-kredit mexanizmi pul munosabatlarining soha yoki bo‘g‘inlari majmui sifatida ta’riflanib, u yordamida moliya-kredit instrumentlari orqali kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatiladi. Pul munosabatlari bu yerda “negiz”, moliya-kredit vositalari esa “ustqurtma” rolida namoyon bo‘ladi [10].

Akademik D. A. Allaxverdyanning fikricha, moliya-kredit mexanizmi takror ishlab chiqarish jarayonidagi o‘zaro bog‘liqlikdagi iqtisodiy munosabatlar va ularning moliyaviy resuslardan samarali foydalanish jarayoni natijasini ifodalovchi vosita-dastaklarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari kompleks majmuasidan iborat.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A. Vahobov va T. Malikov-larning ta’kidlashicha, “moliyaning funksiyalari moliya mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizm milliy xo‘jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy shakllarining majmuini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, moliyaviy rejalashtirish metodlarini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliyaviy qonunchilikni o‘z ichiga oladi” [11].

## NATIJALAR

Ma’lumki, moliyalashtirishning moddiy asoslari moliyaviy resurslar va kreditlardir. Ularning hajmi va darajasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-kredit salohiyatiga xizmat qiladi hamda ularning rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadi. Korxona va tashkilotlarning xo‘jalik yuritish faoliyatidagi hamda mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining asosiy moliyaviy manbalari bo‘lib moliya va kredit resurslari hisoblanadi. YaIMni yaratish, taqsimlash nuqtayi nazaridan moliya-kredit mexanizmi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada qarab chiqish imkonini beradi.

Agar moliya pul bilan bog‘liq bo‘lgan aloqa munosabatlarini ifodalovchi obyektiv iqtisodiy kategoriya sifatida gavdalansa, moliyaviy mexanizm esa moliyani boshqarish yoki moliya turli moliyaviy metodlar asosida moliyaviy dastak va vositalar orqali moliyaviy munosabatlarga ta’sir etishdir [12].

Makroiqtisodiy darajadagi moliya-kredit mexanizmi uchun davlat tomonidan qo‘llaniladigan rejalar, ko‘rsatkichlar, usullar va huquqiy hujjatlar xarakterlidir. Mikroiqtisodiy darajada moliya-kredit mexanizmi xo‘jalik yuritish subyektlari moliya-kredit mexanizmini boshqarish jarayonini tavsiflaydi.

Moliyakredit mexanizmi korxona miqyosi bilangina chegaralanib qolmaydi, balki byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, banklar va boshqa kreditorlar, institutsional investorlar bilan bevosita uzviy munosabatlar tizimiga asoslanadi. Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy strategiyani ishlab chiqishda joriy moliyaviy majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash, vaqtincha bo‘sh bo‘lgan moliyaviy resurslarni joylashtirish hamda ularni samaradorligini tahlil etish muhim o‘rin tutadi. Kapitalning doiraviy aylanishi bo‘yicha faoliyat funksiyalari takror ishlab chiqarish, taqsimot va nazoratni tashkil etishga qaratilsa, moliyaviy resurslar ta’minoti bo‘yicha funksiyalarda pul aylanmasini tashkil etish, moliyaviy vositalar va sarmoyalar bilan ta’minlash, shuningdek, asosiy va aylanma fondlar mutanosibligiga erishish talab etiladi. Kredit resurslarining aylanishi bo‘yicha funksiyalarga kredit ulushini aniqlash, kredit riskining oldini olish, ularning qaytarilish tartibini ishlab chiqish va nazorat qilish kiritiladi.

O‘zbekistonda olib borilgan kichik va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish siyosati ushbu sohada ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minladi. Bugungi kunda biznes-muhitni yanada yaxshilash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash imkonini bermoqda.




1-rasm: O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi YaIMga nisbatan 31 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib mazkur ulush salmog‘i 51,8 foizga o‘sgan. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi bo‘yicha qayd etilgan ko‘rsatkichlar aksariyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi. Jumladan, ushbu ko‘rsatkich italiyada 60,0 foizni, Yaponiyada 55,0 foizni, Germaniyada 54,0 foizni, Buyuk Britaniyada 53,0 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlari guruhidan Qozog‘istonda 25,6 foiz, Rossiya Federatsiyasida esa 20,0 foizga teng [13].

Bunda turli mamlakatlarda kichik biznes sohasiga tegishli o‘rnatilgan me’yorlar turlicha ekanligini ham inobatga olish lozim. Masalan, AQShda savdo sohasida xodimlar soni 100 kishigacha bo‘lgan iqtisodiy subyektlar kichik biznes vakillari hisoblanadi, jumladan, ishlab chiqarish va neftni qayta ishlab sanoatida bo‘lsa xodimlarining soni 1 500 tagacha, elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida esa xodimlar soni 1 000 tagacha bo‘lgan iqtisodiy subyektlar kichik biznes vakillari hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa holat biroz oʻzgacha koʻrinishga ega. Mintaqada ishchilari soni 1–9 tagacha boʻlgan, korxonaning yillik aylanmasi va balansi 2 mln. yevrogacha boʻlgan iqtisodiy subyektlar mikro biznes vakillari hisoblansa, ish oʻrni 10–49 tagacha boʻlgan yillik kapital aylanmasi va balansi hajmi 10 mln. yevrogacha boʻlgan ish beruvchilar kichik biznes subyekti hisoblanadi [14].

Quymda keltirilgan 1-jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, tahlil qilinayotgan davrda asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar salmogʻi 2017-yilda 119,4 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2022-yilga kelib bunday oʻsish tendensiyasi 100,2 foizga pasaygan. 2017–2019-yillarda asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar salmogʻi oʻrtacha 129 foizni tashkil etgan. Kichik biznes korxonalari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarini moliyalashtirish manbalari boʻyicha solishtirma salmogʻining tahlili shuni koʻrsatadiki, bu borada eng katta salmoq chet el investorlari mablagʻlariga tegishli boʻlib, u 2016-yildagi 52,7 foizdan 2022-yilda 59,4 foizga qadar oʻsgan.

1-jadval: Oʻzbekistonda kichik biznes korxonalarning investitsiya resurslaridan foydalanish holati, foizda

| | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar | 119,4 | 129,9 | 138,1 | 95,6 | 102,9 | 100,2 |
| Korxonalar va aholining oʻz vositalari | 47,3 | 42,0 | 29,3 | 40,8 | 38,0 | 40,6 |
| Qabul qilingan mablagʻlar | 52,7 | 58,0 | 70,7 | 59,2 | 62,0 | 59,4 |
| Banklarning kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari | 12,6 | 17,8 | 13,8 | 7,6 | 8,0 | 6,6 |
| davlat byudjeti | 4,8 | 4,5 | 9,0 | 6,8 | 9,3 | 8,0 |

Oʻz salmogʻining ahamiyatliligi boʻyicha navbatdagi manba korxonaning oʻz mablagʻlari boʻlib, u 2017-yildagi 47,3 foizdan 2022-yilda 40,6 foizga qadar pasaygan. Banklarning kreditlari va boshqa qarz mablagʻlarining salmogʻi tegishli ravishda qariyb 12,6 foizlik koʻrsatkichdan 6,6 foizga kamaygan. Bundan koʻrinadiki, tadqiq etilayotgan davrda kichik biznes korxonalarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarini moliyalashtirish manbalari orasida chet el investorlari mablagʻlari va chet el kreditlarining salmogʻida oʻsish tendensiyalari kuzatilmoqda. Kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mamlakat hududlari boʻyicha solishtirma salmogʻida sezilarli tafovutlar mavjud.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga moʻljallangan istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda kichik biznes subyektlari ishtirokini faollashtirish muayyan miqdordagi moliyaviy mablagʻlarni talab etadi. Mazkur jarayonda kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish orqali moliyaviy resurslarni jamlash va ularni istiqbolli loyihalarga yoʻnaltirish hamda iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish barqaror iqtisodiy oʻsishning muhim sharti hisoblanadi.

## MUNOZARA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, moliya-kredit mexanizmining shakllantirish ahamiyatli tomoni shundaki, mazkur mexanizm jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan uzviy bogʻliqdir. Chunki, real sektorning samarali faoliyati bevosita moliya sektoriga bogʻliq, aynan moliya sektoridagi moliya muassasalari tomonidan moliyaviy resurslarni yaratish, taqsimlash funksiyalarining oʻz vaqtida bajarilmasligi real sektordagi iqtisodiyot tarmoq va sohalarining inqirozga yuz tutishiga sabab boʻladi. Shuningdek, moliya-kredit mexanizmining asosiy blok vositalari boʻlib bizning fikrimizcha, moliya-kredit rejalashtirish, moliya-kredit vosita va dastaklari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlar hisoblanadi.

Ayrim zamonaviy iqtisodchilar esa, subyektlar oʻrtasidagi pul munosabatlarini boshqarish shakl va usullari tizimini oʻzida ifodalovchi korxonalarning moliya-kredit mexanizmini ajratib koʻrsatganlar. Xususan, L. V. Popovaning fikriga koʻra, korxonaning moliya-kredit mexanizmi bu shakl va usullarning tartibga solingan toʻplami boʻlib, u orqali korxona oʻzini zarur pul mablagʻlari bilan taʼminlaydi hamda moliyalashtirish yoki kreditlash shartlari asosida boʻlinmalar oʻrtasida qayta taqsimlagan holda barqarorlik va likvidlikning maʼlum darajasiga erishadi, foyda olish va kapital qiymatini oshirishni taʼminlaydi [15].

Shunday qilib, fikrimizcha, moliya-kredit mexanizmi bu kichik biznesning rivojlanishiga bevosita emas, balki bilvosita, moliya-kredit vositalari orqali taʼsir koʻrsatadigan pul munosabatlarining majmuidir. Moliya-kredit vositalariga soliqlar, davlat buyurtmalari bilan taʼminlash, bino va uskunalarni ijaraga berish shartlari, foiz stavkalarini subsidiyalash, bank toʻlovlari, boj toʻlovlari, mikromoliyalashtirish, franchayzing, sugʻurta, tezlashtirilgan amortizatsiya, bank krediti, mikrokreditlash, soliq imtiyozlari, byudjet ssudasi, tijorat krediti, faktoring va lizing kabilarni kiritish mumkin. Moliya-kredit vositalarining asosiy maqsadi kichik biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni izlashdan iboratdir.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yetakchi oʻrinni egallaydi. Jahondagi koʻpgina mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning katta qismi iqtisodiyotning aynan shu sohasida yaratiladi. Kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va ularni qoʻllab-quvvatlashda moliya-kredit mexanizmlari va ularning vosita hamda dastaklari muhim sanaladi.


IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

## XULOSA

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy strategiyani ishlab chiqishda joriy moliyaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, vaqtincha bo'sh bo'lgan moliyaviy resurslarni joylashtirish hamda ularni samaradorligini tahlil etish lozim;
- zamonaviy xorij amaliy tajribasida kichik biznes subyektlarini kreditlashda, kichik biznes subyektlari o'rtasida maxsus so'rovnomalar o'tkazilishi va uning natijasida aniqlangan kamchiliklar asosida kelgusi kreditlash jarayonini tashkil etishni O'zbekiston amaliyotida qo'llash kerak;
- respublikada kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan kredit foiz stavkalarining yuqoriligi va ko'plab kreditlar qisqa muddatga, tadbirkor uchun noqulay shartlarda berilmoqda. Bu o'z navbatida xorijiy valyutadagi kreditlar valyuta kursining muntazam o'sishi hisobiga tadbirkor uchun qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy yordam asosida ajratilgan kreditlarning kafillik, kompensatsiya va resurs mablag'lari asosida shartnomalar tuzish;
- kichik biznes subyektlariga moliyaviy yordam sifatida ajratilayotgan kreditlarni respublika mintaqalari ichki salohiyatini hisobga olgan holda hamda faoliyat ko'rsatayotgan biznes subyektlarining rivojlanish darajasiga ko'ra ajratish kerak;

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433. pdf. 2020. https://documents1.worldbank.org
2. Impact of the Covid–19 Pandemic on Trade and Development. 2020. pdf. https://unctad.org
3. For appropriations from all legislation, see Government Accountability Office (GAO), COVID–19: Opportunities to Improve Federal Response and Recovery Efforts, Report to the Congress, GAO–20–625, June 25, 2020, https://www.gao.gov.
4. Aholi bandligini ta'minlash borasidagi imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi. 2023-yil 25-yanvar. https://president.uz
5. Романенко О. Р. Фінанси: Підручник. – К.: ЦНЛ, 2003. – 312 с.
6. Балабанов А. И., Балабанов И. Т. Финансы. – СПб.: Питер, 2000. – 192с.
7. Базилевич В. Д., Бонастрик Л. О. Государственные финансы. / За ред. Базилевича В. Д. – К.: Атика, 2004. 380 с.
8. Финансовый менеджмент: учебник / коллектив авторов; под ред. проф. Е. И. Шохина. - 4е изд., стер. – Москва: Кнорус, 2017. – 476 с.
9. Сенчагов В. К. Финансовый механизм в повышение эффективности производства. М., 1979. С. 5.
10. Berger, Allen N. and Udell, Gregory F. The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle. Journal of banking and finance. Vol. 22, 1998. – p. 69.
11. Vahobov A. V., Malikov T. S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: "Sharq", 2010. – 804 b.
12. Булгакова Л. Н. Формирование финансового механизма и системқ управление инвестиционной деятельностью предприятия// Финансы и кредит. – 2004. – №16. – С. 41–49.; Ковалев В. В. Финансовый анализ: методы и процедуры. – М.: Финансы и статистика, 2006. – С. 560.
13. Stat.uz. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi sayti.
14. Kersten R, Harms S, Liket K and Maas K. 2011 Small Firms Large Impact? A Systematic Review of the SME Finance Literature. World Development 97. – p. 330–348
15. Попова Л. В. Финансово-кредитный механизм воспроизводства капитала в агроформированиях. Дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Волгоград, 2008. – 43 с.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.